

## FORTEPIANO MUSIQA SOZINING KELIB CHIQISH TARIXI

*Kuchkarbayeva Feruzaxon Xayrullo qizi*  
*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
[kuchkarbayevaferuza@gmail.com](mailto:kuchkarbayevaferuza@gmail.com)  
*Tel: +998911602405*

**Annotatsiya:** Musiqa san'atida Fortepiano ijrochiligi eng ommalashgan turlardan biri sanaladi. Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bo'lishi barchaga ma'lum. Bugungi kunda dunyoning barcha xalqlari orasida eng ommalashgan umuminsoniy cholg'u sozlari ham mavjud. Bulardan biri fortepiano cholg'usidir. Ushbu cholg'u uchun jahonning barcha taniqli kompozitorlari qatorida O'zbekiston kompozitorlari ham yorqin asarlar yaratdilar. Ular yosh ijrochilar tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. Ushbu maqolada siz, sevimli cho'lg'uyimizga aylangan Fortepiano tarixi haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:**Cholg'u ijrochiligi, vokal san'ati, fortepiano, klavikord, mediator.

**Аннотация:** В музыкальном искусстве игра на фортепиано считается одним из самых популярных видов. Всем известно, что у каждого народа есть свои национальные инструментальные слова. Есть и универсальные инструментальные слова, которые сегодня пользуются наибольшей популярностью у всех народов мира. Один из них-фортепианный инструмент. Для этого инструмента, как и для всех известных композиторов мира, узбекские композиторы создали яркие произведения. Их с любовью исполняют молодые исполнители. В этой статье вы найдете краткое изложение истории фортепиано, ставшего нашим любимым инструментом.

**Ключевые слова:** Инструменталист, вокалист, фортепиано, клавикорд, медиатор.

**Abstract:** In the art of Music, Piano Performance is considered one of the most popular types. It is known to all that each nation has its own National Instrument. Today there are also the most popular universal musical instruments among all the peoples of

the world. One of these is the piano instrument. Among all the famous composers of the world for this instrument, the composers of Uzbekistan also created bright works. They are played in love by young performers. In this article, you will get a brief overview of the history of the piano, which has become our favorite desert.

**Keywords:** Player, vocal art, piano, harpsichord, medium.

Respublikamizning turli sohalarida bo‘lgani kabi musiqa ta’limidagi o‘zgarishlar “Vokal san’ati” va “Cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishlarining maxsus fortepiano (organ) cholg‘usi bo‘lmagan boshqa ixtisosliklari uchun muhim fan hisoblangan—“Fortepiano” fani bo‘yicha ham yangi avlod darsliklari va qo‘llanmalar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Bugungi kunga qadar aynan oliy ta’lim muassasalari talabalariga mo‘ljallangan fortepiano ijrochiligi bo‘yicha adabiyotlarning yetarli yaratilmaganligi sababli, ijrochilikni yanada chuqur o‘zlashtirishga qaratilgan yangi o‘quv dasturi mavzulari asosida tizimga solingan o‘quv adabiyotiga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Fortepiano musiqasi janrlarini o‘rganish musiqiy ta’limning barcha bosqichlaridagi dolzarb masaladir. “Fortepiano” fani barcha ijrochilik ixtisosliklari uchun umumkasbiy fan hisoblanib, u – Garmoniya, Solfedjio, Musiqiy asarlar tahlili kabi fanlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. O‘zlashtirilgan ijrochilik ko‘nikmalari, ularni yanada keng va chuqurroq o‘rganishga ma’lum darajada ko‘mak bo‘ladi. Mazkur fanni o‘zlashtirish uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda boshqa darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, elektron materiallar, zarur bo‘lganda sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Xorijiy ilg‘or pedagogik texnologiyalar va nota adabiyotlaridan unumli foydalaniladi.<sup>2</sup> Mustaqil ta’limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta’lim resurslaridan, ta’lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg‘armasidan, repetitoriyalardan, o‘quv laboratoriyalari, ovoz yozuv studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini

<sup>2</sup> Djamalova D. An’anaviy xonandalik va an’anaviy cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishi uchun darslik. T.:O‘qituvchi 2018. 6-b.

bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi. Shuningdek, mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "Internet", "Ziyonet" kabi axborot tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Fortepiano cholg'u asbobining tarixi juda qadim zamonlarda ya'ni, qadimgi Yunonistonda borib taqaladi. Ko'paytirish nazariyasining asoschisi Pefagor yashagan davrda monoxord deb nomlanuvchi cholg'u asbobi mavjud bo'lgan. Bu cholg'u asbobi ustida tor tortilgan uzun ingichka qutidan iborat edi. Bu quti maxsus daraxt yog'ochidan yasalgani uchun undan chiqadigan tovush baland va o'z tembr xususiyatiga ega bo'lgan. Tor qutichaga siljiltilmaydigan xarrak bilan qotirilgan, undan tashqari yana bir harakatlanuvchi xarrak bo'lib, u torda harakatlantirib, musiqiy tovushni pasaytirish yoki balandlatish uchun xizmat qilgan. Vaqt o'tgan sari bitta tor yoniga boshqa torlar qo'shib borilgan. Bu cholg'u asbobdan maxsus maun (mediator) bilan ba'zida esa torlarga maxsus tayoqcha bolg'acha bilan urib ijro etilgan.

Asrlar o'tib, bu cholg'u asbobi takomillashib bordi. Quti kattalashib, to'g'ri burchakli holatga keladi. Tor tomonga klaviatura joylashtiriladi. Endi cholg'uchi klavishni bosib chaladigan bo'ldi, unga moslangan metall plastinkalar torlarni tiragan holda tovush hosil qilgan. Bu cholg'u asbobi klavikord deb atala boshlagan. Uni stol ustiga qo'yib, turgan holda ijro etilgan.<sup>3</sup> Klavikord cholg'u asbobi XII asrda paydo bo'lib, besh asr davomida bir qancha davlatlarda yashaydigan ustalar uni takomillashtirishga harakat qilishgan. Musiqa tovushlari kuchli, qattiq chiqishi uchun har bir klavishga bir necha tor qo'shilgan va qutining hajmi kattalashgan.

Vaqt o'tishi bilan klavikordda bir necha klaviatura joylashtirilgan, har bir

<sup>3</sup> Мартинов И. История западноевропейской музыки. Том 5 М. 1963.

klaviatura cholgʻu asbobi ovoz diapazonini kengaytirishga hamda kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu harakatlar ham cholgʻu asbobi ovozini kuchaytirishga xizmat qila olmadi. Klavikord qimmatbaho yogʻochdan, bezakli qilib yasalgani uchun boy-badavlat kishilarning mehmonxonalarini ham bezashga xizmat qilgan. XVII asr oxirida Fransiyada pastki oq klaviaturalar qora daraxtdan qora rangda, tovushlari kuchli, qattiq chiqishi uchun har bir klavishga bir necha tor qoʻshilgan va qutining hajmi kattalashgan.

XVII asr oxirida Fransiyada pastki oq klaviaturalar qora daraxtdan qora rangda, yuqoridagilari oq rangda boʻlib, fil suyagidan ishlangan. Bunday qilib yasalishining sababi u davrlarda klavishli cholgʻu asboblarda koʻproq xotin-qizlar ijro etishgan boʻlib, qora klaviaturalar ustida oppoq qoʻlli klavikord chalayotgan xotinlarning jozibali qoʻl harakatlaridan zavqlanish uchun boʻlgan. Amma bunaqa qora klaviaturalar orasidagi oraliq chiziqlar qorishib ketib, koʻrinmas va cholgʻuchiga qiyinchilik tugʻdirar edi. XVII asrga kelib klaviaturalar rangi hozirgi fortepianodagidik joylashtirila boshlagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Djmalova D. Anʼanaviy xonandalik va anʼanaviy cholgʻu ijrochiligi taʼlim yoʻnalilishi uchun darslik. T.:Oʻqituvchi 2018.
2. Мартинов И. История западноевропейской музыкию Том 5 М. 1963.